

## ROSSIYA IMPERIYASI VA QO‘QON XONLIGI MUNOSABATLARI

**I.M. Xaydarov**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”  
kafedrası professorı, tarix fanlari doktori (DSc).*

**Ahmadaliyev Samandar**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi”  
yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

*E-mail: izzatillakhon@gmail.com, samandaraxmadaliyev04@gmail.com*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutgan davrlari tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida o‘rganiladi. Adabiyot sharhi doirasida nazariy asoslar, mintaqaviy va milliy olimlarning yondashuvlari, empirik tadqiqotlar va zamonaviy bahs-munozaralar chuqur tahlil qilinadi. Maqolada ikki davlat o‘rtasidagi geosiyosiy ziddiyatlar, diplomatik aloqalar va harbiy to‘qnashuvlar tarixiy jarayonlar kontekstida yoritiladi. Tadqiqot natijalari Rossiya va O‘rta Osiyo munosabatlarining hozirgi bosqichini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** Rossiya imperiyasi, Qo‘qon xonligi, tarixiy munosabatlar, geosiyosat

**Abstract.** This article explores the formation, development, and eventual crisis of relations between the Russian empire and the Kokand Khanate, based on historical sources and modern research. The literature review covers theoretical foundations, approaches of regional and national scholars, empirical studies, and contemporary debates in depth. The article analyzes geopolitical conflicts, diplomatic relations, and military confrontations between the two states within their historical context. The research findings are significant for understanding the current stage of relations between Russia and Central Asia.

**Keywords:** Russian Empire, Kokand Khanate, historical relations, geopolitics

**Аннотация.** В данной статье исследуется формирование, развитие и кризисные этапы отношений между Российской империей и Кокандским ханством на основе исторических источников и современных исследований. В обзоре литературы глубоко анализируются теоретические основы, подходы региональных и национальных ученых, эмпирические исследования и современные научные дискуссии. В статье рассматриваются геополитические противоречия, дипломатические связи и военные столкновения между двумя государствами в историческом контексте. Результаты исследования важны для понимания современного этапа отношений России и Центральной Азии.

**Ключевые слова:** *Российская империя, Кокандское ханство, исторические отношения, геополитика*

**Kirish.** Rossiya imperiyasi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi munosabatlar O‘rta Osiyo va Rossiya tarixida muhim o‘rin tutadi. XVIII asrning oxiri va XIX asrda bu ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar nafaqat mintaqaviy, balki global geosiyosiy jarayonlar doirasida ham ahamiyat kasb etgan. Rossiya imperiyasi janubiy chegaralarida o‘z ta‘sirini kuchaytirish va savdo yo‘llarini kengaytirish maqsadida harakat qilgan bo‘lsa, Qo‘qon xonligi o‘z mustaqilligini saqlab qolish hamda ichki siyosiy barqarorlikni ta‘minlashga intilgan. Mazkur maqolada Rossiya imperiyasi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanishi, rivojlanishi, ziddiyatlari va inqirozi tarixiy manbalar hamda zamonaviy tadqiqotlar asosida batafsil tahlil qilinadi. Shu jumladan, adabiyotlarda mavjud nazariy yondashuvlar, empirik dalillar va zamonaviy bahs-munozaralar chuqur o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari orqali ikki davlat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning tarixiy ildizlari va hozirgi davr uchun ahamiyati ochib beriladi.

**Adabiyotlar tahlili.** D. Alimovanning “O‘rta Osiyo xonliklarining qo‘shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari”<sup>115</sup> nomli asarida Qo‘qon xonligining tashqi aloqalari, xususan Rossiya bilan olib borilgan diplomatik va savdo munosabatlari keng yoritilgan. Muallif Qo‘qon xonligining Rossiya bilan dastlabki aloqalari asosan savdo yo‘llarini rivojlantirish va iqtisodiy manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lganini ta‘kidlaydi. Asarda elchilik aloqalari, savdo karvonlari va chegaraviy munosabatlar muhim o‘rin egallaydi.

R. Shamsutdinov, H. Sodiqov, R. Ravshanov va Q. Usmonovlarning hammuallifligidagi “Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida”<sup>116</sup> kitobi Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosatini keng qamrovda ochib beradi. Ushbu asarda Qo‘qon xonligi bilan munosabatlar dastlab savdo va diplomatik shaklda boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik harbiy-siyosiy bosim va bosib olish siyosatiga aylangani asoslab berilgan. Ayniqsa, XIX asr o‘rtalaridan boshlab Rossiyaning Markaziy Osiyodagi ekspansiyasi kuchaygani ko‘rsatib o‘tiladi.

Azamat Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi”<sup>117</sup> tarixiy asarida Qo‘qon xonligining siyosiy tizimi va tashqi siyosati umumiy tarixiy jarayonlar doirasida tahlil qilinadi. Muallif Rossiya bilan munosabatlarni xonlikning ichki siyosiy zaiflashuvi va hududiy bo‘linishlar

<sup>115</sup> Alimova R.R. O‘rta Osiyo xonliklarining qo‘shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari. – TDSHU, 2017.

<sup>116</sup> Shamsutdinov R, Sodiqov H, Ravshanov R, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.

<sup>117</sup> Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) – Toshkent: Sharq, 2000.

bilan bog‘laydi. Bu omillar Rossiya imperiyasining xonlik ustidan nazorat o‘rnatishini osonlashtirganini ko‘rsatadi.

R. Shamsutdinovning “Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari)”<sup>118</sup> nomidagi o‘quv qo‘llanmaasi ham Rossiya imperiyasi va Qo‘qon xonligi munosabatlarini o‘rganishda muhim adabiyotlardan biri hisoblanadi.

Ushbu asarda Qo‘qon xonligining tashkil topishi, siyosiy taraqqiyoti va tashqi aloqalari tizimli ravishda yoritilgan. Muallif Rossiya bilan munosabatlarni tarixiy jarayonning uzviy qismi sifatida ko‘rib, ularning bosqichma-bosqich rivojlanishini tahlil qiladi. Dastlabki davrda Qo‘qon xonligi Rossiya bilan savdo va diplomatik aloqalarni rivojlantirishga intilgani, ayniqsa chegaraviy savdo va elchilik munosabatlari muhim o‘rin tutgani ko‘rsatib beriladi.

Shamsutdinov asarida XIX asrga kelib vaziyat keskin o‘zgargani alohida ta’kidlanadi. Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga nisbatan strategik manfaatlari kuchayib, u iqtisodiy hamkorlikdan harbiy-siyosiy bosqinchilik siyosatiga o‘ta boshlagan. Qo‘qon xonligining ichki siyosiy beqarorligi, taxt uchun kurashlar va hududiy nizolar Rossiya uchun qulay sharoit yaratgani asoslab beriladi.

Muallif, shuningdek, Qo‘qon xonligining Rossiya bosqiniga qarshi kurashlarini ham yoritadi. Bu kurashlar ayrim hollarda muvaffaqiyatli bo‘lgan bo‘lsa-da, umumiy jihatdan markazlashgan qarshilikning yetishmasligi sababli xonlik Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganini qayd etadi.

Usmonovning O‘zbekiston tarixi<sup>119</sup> darsligida mavzu tizimli va umumlashtirilgan tarzda bayon qilingan. Unda Qo‘qon xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi munosabatlar bosqichma-bosqich yoritilib, savdo aloqalaridan boshlangan jarayonning siyosiy qaramlik va oxir-oqibat xonlikning tugatilishi bilan yakunlangani ta’kidlanadi.

H. Ziyoyevning “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash”<sup>120</sup> asari esa masalaga qarshilik harakatlari nuqtai nazaridan yondashadi. Muallif Qo‘qon xonligining Rossiya bosqiniga qarshi olib borgan kurashlarini, jumladan xalq qo‘zg‘olonlari va harbiy qarshiliklarni batafsil tahlil qiladi. Asarda mustamlakachilikka qarshi harakatlarning sabab va oqibatlari ochib berilgan.

**Natijalar.** Qo‘qon xonligi qulay geografik hududda, muhim karvon yo‘llari kesishgan joyda va qadimdan rivojlangan dehqonchilik mintaqasida joylashgani sababli tez taraqqiy etgan. Qo‘qon shahri XVIII–XIX asrning birinchi yarmida nafaqat xonlikning, balki butun O‘rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga

<sup>118</sup> Shamsutdinov R. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 2010.

<sup>119</sup> Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi: Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006.

<sup>120</sup> Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash: (XVIII–XX asr boshlari) – Toshkent: Sharq, 1998.

aylangan. Xonlik tarkibida Toshkent, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlarda ham hunarmandchilik keng rivojlangan edi.

Qo‘qonda hunarmandchilikning turli yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular orasida misgarlik, zargarlik, o‘ymakorlik, qurolsozlik, kulolchilik, qog‘ozchilik, to‘qimachilik, do‘ppi tikish, kashtachilik, temirchilik, nonvoylik, aravasoziq, baxmalboflik, bo‘yoqchilik, gilkorlik, dorikashlik, devor bezash, najjorlik, nayzagar, panjarasoziq, pillakashlik, po‘stindo‘zlik, taqachilik, paranjido‘zlik, chodirchilik, chevarlik, chitgar, gilamchilik kabi ko‘plab sohalar rivoj topgan. Shaharda haftaning chorshanba va yakshanba kunlari bozor tashkil etilib, bu savdo-sotiqning jonlanishiga xizmat qilgan. Hunarmandchilikning keng rivojlanganligi xonlikning qo‘shni davlatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirishga imkon bergan. Rossiya bilan aloqalar boshqa xonliklarga nisbatan kechroq yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bunga xonlikning geografik jihatdan uzoq joylashgani sabab bo‘lgan. Shunga qaramay, xonlik Xitoy, Hindiston va Qirg‘iz dashtlari bilan faol savdo va diplomatik munosabatlar olib borgan. XIX asr boshlaridan boshlab Rossiya xonlikka katta qiziqish bildirgan. Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarish tanazzulga yuz tutgan bir davrda Qo‘qonda bu soha rivojlanib borgan<sup>121</sup>. Samarqandlik ustalarning Qo‘qonga ko‘chib kelishi natijasida qog‘ozchilik rivoj topib, Qo‘qon Orol dengizidan tortib Xitoygacha bo‘lgan hududlarni qog‘oz bilan ta‘minlovchi markazga aylangan. Qo‘qon qog‘ozi Qoshg‘ar va shimoliy Afg‘oniston hududlariga ham yetkazilgan. Qog‘oz ustaxonalari shahar darvozalaridan biri yaqinida joylashgan bo‘lib, oddiy sharoitda tashkil etilgan juvozlarda ustalar yordamchilari bilan bir kunda yuzlab varoq qog‘oz tayyorlaganlar<sup>122</sup>. Qo‘qon qog‘ozi sifati va hajmi bilan ajralib turgan. Uning varoqlari yirik o‘lchamda bo‘lib, keng hududlarda talab yuqori bo‘lgan. O‘rta Osiyo olimlari, tarixchilari va shoirlari o‘z asarlarini aynan shu qog‘ozga yozganlar. Devonxona ishlarida ham undan keng foydalanilgan, turli qo‘lyozma asarlar va diplomatik hujjatlar shu qog‘ozda bitilgan. XIX asr boshlarida Toshkentda bo‘lgan sayyoh qog‘oz ishlab chiqarish Qo‘qon va Toshkentda amalga oshirilishini qayd etgan. Qo‘qonda ipakdan tayyorlangan yuqori sifatli qog‘oz ham ishlab chiqarilgan bo‘lib, u qimmatligi sababli asosan maxsus buyurtmalar asosida tayyorlangan.

Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo xonliklari, Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan karvon yo‘llari orqali bog‘langan bo‘lib, ular bilan faol savdo aloqalarini olib borgan. Rossiya bilan savdo-siyosiy munosabatlar dastlab boshqa xonliklarga nisbatan sustroq rivojlangan bo‘lib, bunga xonlikning geografik jihatdan uzoqligi hamda Toshkent bekligi orqali ajralib turishi sabab bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi o‘n yilliklaridan boshlab esa

<sup>121</sup> Alimova R.R. O‘rta Osiyo xonliklarining qo‘shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari. – TDSHU, 2017. 94 b.

<sup>122</sup> Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) — Toshkent: Sharq, 2000. –368 b.

bu aloqalar jadal rivojlana boshlagan. Dastlabki bosqichda Rossiya va Qo‘qon o‘rtasi dagi munosabatlar do‘stona ruhda kechib, har ikki tomon ham savdo va diplomatik aloqalardan manfaatdor bo‘lgan. Bu munosabatlar rus elchilari va sayyohlarining hisobotlari hamda asarlarida o‘z aksini topgan. Rossiyaning Qo‘qon bilan aloqalari asosan Sibir orqali amalga oshirilgan. 1806-yil 13-yanvarda Sibir inspeksiyasi tomonidan Rossiya savdo vaziri N.P. Rumyantsevga Qo‘qonga savdo karvoni yuborilgani haqida ma‘lumot berilgan, biroq bu karvon manzilga yetib bormagan. Keyinchalik 1811-yilda kalugalik savdogarlar Ivan va Akim Sveshnikovlar karvoni Qo‘qonga muvaffaqiyatli yetib kelib, savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ygan va ular rus hukumati tomonidan mukofotlangan<sup>123</sup>.

Rossiya savdogarlari kelganidan so‘ng Qo‘qon xoni Umarxon rus hukumati bilan Sibir orqali erkin savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yishni taklif etgan. Bu taklif Aleksandr I tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Rossiya imperiyasi Qo‘qon bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga katta e‘tibor qaratib, xonlikdan kelgan elchilar va savdogarlarni himoya qilish choralari ko‘rgan. Qo‘qon elchisi Shokirbek ham Rossiyada savdo erkinligini kengaytirish va ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish zarurligini ta‘kidlagan<sup>124</sup>. Rossiya tomonidan O‘rta Osiyoga yuborilgan ekspeditsiya va elchiliklarga maxsus topshiriqlar berilgan. 1813-yilda tarjimon Filipp Nazarov Qo‘qonga yuborilib, diplomatik mojaroni hal qilish vazifasini bajargan. Uning 1813–1814-yillardagi safari natijasida yozilgan asarida Qo‘qonning Qoshg‘ar, Xitoy, Xiva, Buxoro va Sharqiy Eron bilan savdo aloqalari yoritilgan. U elchilarni qabul qilish marosimida qatnashib, turli mamlakatlardan kelgan vakillarni kuzatgan. Shuningdek, O‘ratepa shahri haqida ma‘lumot berib, u yerda aholining paxsa uylarda yashashi va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishini qayd etgan.

1826-yilda chop etilgan maqolalarda Qo‘qon aholisi paxta va ipak yetishtirishi hamda Xitoy, Xiva va Eron bilan savdo qilishi haqida yozilgan. 1828-yilda Qo‘qon elchilari Rossiya podshosi Nikolay I huzuriga borib, ikki davlat o‘rtasida do‘stona aloqalarni rivojlantirish taklifini bildirganlar. Elchilar yaxshi kutib olinib, Qo‘qon savdogarlari va elchilariga Rossiya hududida himoya va qulay sharoitlar yaratilishi ma‘lum qilingan. 1829-yilda erishilgan kelishuvga muvofiq, N.I. Potanin Qo‘qonga elchi sifatida yuborilib, u yerda bir necha oy davomida bo‘lgan va o‘z kuzatuvlarini yozib qoldirgan. Uning asarlarida Qo‘qon xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holati, yo‘llari, harbiy tizimi, diniy urf-odatlar va tabiatiga oid muhim ma‘lumotlar keltirilgan.

<sup>123</sup> Alimova R.R. O‘rta Osiyo xonliklarining qo‘shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari. – TDSHU, 2017. 94 b.

<sup>124</sup> Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi da vrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 466 b.

**Xulosa.** Rossiya imperiyasi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi munosabatlar O‘rta Osiyo tarixida chuqur iz qoldirgan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Ushbu maqolada ta’kidlab o‘tilganidek, bu munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Bir tomondan, Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan siyosat mintaqada modernizatsiya va iqtisodiy taraqqiyotga ma’lum darajada turtki bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mustamlakachilik siyosatining mahalliy jamiyatga ko‘rsatgan salbiy oqibatlari – siyosiy mustaqillikning yo‘qolishi, madaniy va diniy merosning yemirilishi, xalqning ijtimoiy ongida yuzaga kelgan o‘zgarishlar – ham chuqur tahlil qilinadi. Qo‘qon xonligining siyosiy zaifligi, ichki ziddiyatlari va tashqi bosimlarga qarshi turishdagi cheklangan imkoniyatlari Rossiya imperiyasining muvaffaqiyatli ekspansiyasini ta’minlagan omillardan biri bo‘ldi. Zamonaviy tadqiqotlar va tarixiy manbalar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Rossiya-Qo‘qon munosabatlari nafaqat ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar, balki mintaqadagi geosiyosiy kuchlar muvozanati, xalqaro diplomatiya va mahalliy jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu tarixiy tajriba zamonaviy O‘zbekiston va Rossiya munosabatlari uchun ham muhim saboqlar beradi, milliy identitet va tarixiy xotira masalalariga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Kelgusida bu masalalar yanada chuqurroq o‘rganilishi, yangi arxiv materiallari va zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida tahlil qilinishi O‘rta Osiyo tarixining to‘liq va obyektiv tasvirini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimova R.R. O‘rta Osiyo xonliklarining qo‘shni davlatlar bilan diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari. – TDSHU, 2017.
2. Shamsutdinov R, Sodiqov H, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.
3. Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) – Toshkent: Sharq, 2000.
4. Shamsutdinov R, Vatan tarixi (XVI-XX asr boshlari. – Toshkent: Sharq, 2010.
5. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi: Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006.
6. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash: (XVIII–XX asr boshlari) – Toshkent: Sharq, 1998.